



MUHIDDIN ABDUSAMADNING BA‘ZI SHE‘RLARI BADIYYATI

<https://doi.org/10.70728/qdpi.v08.i01.030>

***Qahhorjon Yo‘lchiyev,**
filologiya fanlari doktori, FarDU professori*

Annotatsiya. Maqolada iste‘dodli shoir Muhiddin Abdusamadning lirik she‘rlaridagi badiyya ifodasi, xususan, lirik subyekt, badiiy g‘oya, mazmujniy kompozitiya, kechinma tabiati, obrazlilik masalalari haqida fikr yuritiladi. Kirish qismida olib chiqilgan muammoning dolzarbligi ilmiy dalillangan. Metodologiya va adabiyotlar tahlili qismida nemis olimi Gegel, o‘zbek olimi I.G‘afurov, rus olimi T.Silmanlarning ilmiy nazariy qarashlari tahlil etilib, aniq uslubiy asos belgilab olingan. Muhokama qismida esa shoirning bir nechta she‘rlari tahlil etilib, ulardagi badiiylik masalalari haqida fikr bildirilgan. Xulosa esa izlanish davomida umumlashma fikrlar sanab ko‘rsatilgan. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati mavjud.

Kalir so‘z va iboralar: lirika, obraz, kompozitiya, kechinma, ideal, g‘oya.

The article examines artistic expression in the lyric poems of the talented poet Mukhiddin Abdusamad, in particular, issues of lyrical themes, artistic ideas, composition of content, the nature of experiences and imagery. The relevance of the problem raised is scientifically substantiated in the introduction. In the section on methodology and literature analysis, the scientific theoretical views of the German scientist Hegel, the Uzbek scientist I. Gafurov, and the Russian scientist T. Silman are analyzed, and a clear methodological basis is established. In the discussion section, several poems of the poet are analyzed, and opinions are expressed about the issues of artistry in them. The conclusion lists the generalizations made during the research. There is a list of used literature.

Keywords and phrases: lyrics, image, experience, composition, ideal, idea,

Аннотация. В статье рассматривается художественное выражение в лирических стихотворениях талантливого поэта Мухиддина Абдусамада, в частности, вопросы лирической тематики, художественной идеи, композиции содержания, природы переживаний и образности. Во введении научно обосновывается актуальность поднятой проблемы. В разделе, посвященном методологии и исследованию литературы, анализируются научно-теоретические взгляды немецкого ученого Гегеля, узбекского ученого И. Гафурова и русского ученого Т. Сильмана, устанавливается

четкая методологическая основа. В разделе обсуждения анализируются несколько стихотворений поэта и высказываются мнения по вопросам художественности в них. В заключении перечисляются обобщения, сделанные в ходе исследования. Приводится список использованной литературы.

Ключевые слова и фразы: лирика, образ, композиция, переживание, идеал, идея.

Kirish. Ijodkorning badiiy tafakkur yuritishi, ayniqsa, borliqni badiiy-estetik anglash, idrok qilish jarayoni o‘ta murakkab va ko‘p bosqichli bo‘lib, badiiy so‘z yordamida borliqni qanday tushunishi, tafakkur qilishi hamda o‘zi anglagan g‘oya, idealni, ifoda qilmoqchi bo‘lgan muammo, kechinma, fikrni original tarzda shakllantiradi. Zero, “Yurakning eng tubidagi his-tuyg‘ular sahnaga go‘zal liboslar kiyib kiyinib chiqishi nafasatdan darfak berak beradi... O‘zlikni ifodalashning eng maqbul yo‘li so‘z-obraz, tovush obraz ustida ishlashdir... Jarangdor so‘z ishlash va toppish, so‘z ijodkorligi shoirning qiyofasini ko‘rsatadi” [Bahodir Karim, 92]. Darhaqiqat, lirik subyekt ichki olamini oshkor qilar ekan, uni nafis ifodalarda aks ettirishi lozim bo‘ladi. Bu esa shoirning estetik did, saviyasini belgilaydi. Zamonaviy o‘zbek shoirlari orasida ana shunday yetuk shoirlardan biri Muhiddin Abdusamad hisoblanadi. Uning she‘rlari samimiy, nafis kechinmalarning hayotiy kuzatish natijasida kelingan badiiy xulosalarga boy bo‘lib, o‘quvchi tuyg‘ulari, ruhiy olamini sayqallashga xizmat qiladi. Shuning uchun uning she‘rlarini jiddiy tadqiq etish adabiyotshunoslik oldida turgan muhim vazifa sanaladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Lirik she‘r va uning badiiyati haqida salmoqli ishlar qilingan. Xususan, adabiyotshunos I.G‘afurov shunday yozadi: “She‘rda kitobxonni tarannum etilayotgan tuyg‘uning go‘zalligiga, hissiyotning samimiyligiga, pokligiga, olam manzarasi tasvirining haqqoniy chizilganiga ishontirish kerak bo‘ladi... ishontirish san‘ati ... so‘zni sehlalab, qalb amriga bo‘ysundiradigan san‘atdir” [G‘afurov I., 146-147]. Mazkur o‘rinda olim lirik she‘riyatning nafis va yetuk chiqishiga talab qo‘yadi. Shu ma’noda lirik she‘riyat shunchaki vaznga solingan, qofiyali nutq shakli emas, balki lirik subyekt botinida tashqi ta’sir natijasida shakllangan salmoqli voqea, hodisaning kechinma ko‘rinishidagi ifodasidir. Zero, “Lirik she‘r uchun, eng muhimi, shoir (yoki lirik “men”) tashqi yoki ichki olamdagi voqea yoki hodisani mazmunini shaxsiy kechinma sifatida anglagan lahzani aks ettirish hisoblanadi.” [Сильман. 28] Chunki tayyor hayotiy material hamma mavjud, ammo uni lirik kechinma hamda uning umuminsoniy mohiyatini ifodalash haqiqiy iste’dodni bildiradi.

Nemis mutafakkiri Gegel esa shoir san‘atning rassom, musiqachi, arxitektor kabi vakillaridan farqli ravishda, inson ruhiy olamiga teranroq kirishi va o‘z-o‘zini ifodalash kabi murakkab bosqichdan o‘tadi deb hisoblaydi: “Shuning uchun, shoir ijod jarayonining ma’naviy mazmuniga teranroq kirib borish va u anglash jarayonining yerda yashiringan xazinani yoriqlikka olib chiqish imkoniga ega bo‘ladi.” [Gegel, 381]. Shunday ekan shoir umuminsoniy ideal, g‘oya va yuksak qadriyatlar egasiga aylanishi lozim bo‘ladi. Chunki lirik

subyekt olami millati, diniy mansubligi, yashash zamoni yoki hududidan qat’iy nazar butun insoniyatga daxldor ma’naviy olam sanaladi. Bu esa lirik she’rni ijtimoiy qurol yoki siyosiy maqsad, didaktik unsurga aylantirmasdan Inson, Vatan, hayot haqidagi yuksak g‘oyalarni ifodalashni taqazo etadi.

Natija va muhokamalar

Manbalardan ko‘rinadiki, lirik she’r shunchaki kichik hajmli, ma’lum texnikaga ega bo‘lgan yaratish mumkin bo‘lgan asar emas. Balki umuminsoniyatning ma’naviy olamiga, yuksak ideal va maqsadlarga xizmat qiladigan, komil insonni shakllantirishga undaydigan yetuk ma’naviy tarbiya manbasidan biridir. Shu ma’noda haqiqiy shoir nisbatan kamroq bo‘ladi. Borlari ham kamtar va ichki olamini hamma joyda oshkor etavermaydi. Lekin yozganlari albatta vatan, xalq va insoniyatga aloqador bo‘ladi. Xususan, Muhiddin Abdusamadning “Qaytish” she’rida vatanparvarlik g‘oyasi tabiyat tasviri bilan yaxlitlikda namoyon bo‘lgan:

Meni ko‘rib boshlanar darrov,
Pistazorda shivir-shivirlar.
Bir-birining yelkasi osha
Ishonmasdan qaraydi qirlar. [5]

Mazkur band mazmuniy kompozitsiyon jihatdan tezis vazifasida kelgan. Banddagi pista, qir detallari “shivir-shivirlar” va “ishonmasdan mo‘ralaydi” jumalari bilan mazmuniy munosabatga kirishgan. Natijada ular obrazga aylangan. Bu esa ushbu detallarga yangicha yuklama bergan. Unda lirik subyektning tashqi olam ilk aloqasi hamda ana shu aloqa natijasida botiniy olamida tug‘ilgan kechinma tabiatiga ko‘tarinkilik bag‘ishlagan. Qadrdon makonga qaytganda qalbda tug‘ilajak sog‘inch hislari ruhiy parallelizm vositasida pista daraxti va qirlarga ko‘chgan. Lirik subyekt o‘z ruhiyati va pista, qirlar uyg‘unligini his etmoqda. Bu Vatan tuyg‘usining eng inja tasviri sanaladi. Lirik subyekt o‘ta xassoslik bilan qir va pistazorni olgan. Ammo ana shu ikki muhim detal orasida u tug‘ilgan va yashagan qishloq, tabiat, makon hamda undagi kishilar tasviri ham mavjud. Buni assiativ tafakkur orqali, mantdan taqshqaridagi struktura yashash orqali tiklanadi. Natijada she’rning butun mohiyatiga oydinlik kira boshlaydi. Ayniqsa, pistazordagi daraxtlar jonlanib, bir-biriga nimanidir (lirik subyekt qaytani va uzoq vaqt unda yuz bergasn o‘zgarishlar haqida) bir-birga shivirlab so‘zlayotgandek taassurot qoldiradi. Qirlar ham umidini uzgan odamdek ishonqiramasdan bir-biri osha bo‘ylashida, vatan va undagi kishilar lirik subyektga intiq ekanligi aks etgan.

Odatda, kishi uzoq safardan yoki boshqa joyga ketib, oradan vaqt o‘tgach ota uyi, qadrdon makoniga qaytganda uni ko‘rgan odamlar bir-biriga nimadir aytib, pichirtlab turishadi. Real hayotda ham pista daraxti yaproqlarini shivirlatadi< qirlar ham avval pastrog‘i, keyin esa balandrog‘i ko‘rinib o‘ziga xos manzara hosil qiladi. Lirik subyekt ana shu holatni oniy lahzada tug‘ilgan kechinma bilan yaxlitlashtirib, qalb biografiyasini aks ettirgan. Bu esa she’rning keyingi bandidagi obraz-detallarda yanada aniqroq, yorqinroq tasvirlanadi:

Quvongandan shodon daraxtlar

Qiyqirishib urishtirar qo‘l.

Mendan oldin suyunchi so‘rab

Uyga qarab chopib ketar yo‘l.

Aslida, daraxtlar yaqin ekilishi tabiiy sanaladi, lekin lirik subyekt ana shu yaqinlik, shoxlari bir-biriga tegib turishi ham obrazga aylantirib daraxtlarga yana jonlilik, obrazlilik bag‘ishlagan. Yo‘l chopgancha uyga kirib ketishi esa kutilmagan mehmon tashrifidan paydo bo‘lgan xursandchilik, shodyonaga ishora bor. Yo‘l shu qadar tez chopadiki, kishi ko‘zi uning qachon uyga kirib, aziz farzanding keldi deya ota-onaga xabar berganini kishi anglamay qoladi. Ammo ana shu lahzaning o‘zida huzurbaxshlik, dilga rohat beradigan kechinmalar bor. Chunki bu lahzani intiqlik bilan kutgan kishilargina qarsak chalib lirik subyekt qaytishini olqishlayotgan daraxtlar ovozini eshitadi, chopqilagan yo‘l vazifasini angelaydi. Bunda hayotsevarlik g‘oyasi, vatan tuyg‘usining tabiiy ifodasi berilgan.

Muhiddin Abdusamad lirik subyekt timsolida uyiga qaytish lahzasidagi lirik kechinmasini batafsil tasvirlar ekan, har bir detalni, predmetni jonlantiradi, shaxslantiriladi. Xususan, darvoza ham jonli tasvirda itasvirlangan. Buni quyidagi bandda kuzatish mumkin:

Otam kabi qochog‘in ochib

Qarshi olar qari darvoza.

Chug‘urlashib sho‘x qaldirg‘ochlar

Kelganimni qilar ovoza.

Darvoza otaga o‘xshatilib, metaforik asosda jonlantirilgan hamda ota va darvoza uyg‘unligi ta‘minlangan. Chunki darvoza uy – Vatan chegarasi, xonadon yuzi bo‘lsa, ota ham oila timsoli sanaladi. Darvoza ham ota kabi ko‘chaga chiqishi, ota kabi ikki qulochi borligi va u ham quchoq ochishi kabi jihatlar she‘r obrazlilikini kuchaytirgan hamda band mazmunini yanada ta‘sirchan hamda serqatlam bo‘lishiga xizmat qilgan. Qaldirg‘och esa xabar tarqatuvchi vazifada kelishi ruhiy parallelizm asosida uyga mehmon, aziz odam kelganida shodlikdan chug‘urlashgan bolalarga qiyolanadi. Lirik subyekt tabiat hodisasi, aniq vaziyatga oid turli detal vositalarga, predmetlarga badiiy-estetik vazifa yuklar ekan, birinchi galda lirik subyekt kechinmasi tabiatidan kelib chiqadi. Ayniqsa, sog‘inch hissi lirik subyekt yuragini ezayotgani, qalbida tugun bo‘lib turgani, ammo uyga qaytish asnosida yechilishi quyidagi bandda tavsiflanadi:

Dimog‘imga urilar birdan,

Onam ekkan rayhonlar bo‘yi.

Yuragimga chan solgan tugun

Shu asnoda yurara qo‘yib.

Bu yerda rayhon hidi va yurakdagi tugun munosabati lirik subyekt botiniy olamidagi vaziyatni to‘la aks ettirgan. Aynan ona ekkan rayhon hidi lirik subyektni qiynagan sog‘inch hissiga, shu uydagilarni yo‘qlay olmayotganidan dilida tug‘ilgan dardni aritadi. Bu esa kechinmaning lirik syujetdagi eng yuqori nuqtasi yaqinlashganini anglatadi. Shuning uchun

avvalgi bandlardagi qat’yi qofiya, bu bandda och qofiyaga aylanadi. Chunki kechinma tabiati shuni taqazo etadi.

To‘g‘ri, bu lirik she‘rning subyektivlik xususiyatidan kelin chiqadigan jarayon bo‘lib, muallif o‘zi va qadrdon uyi, qishlog‘i bilan munosabatlarini, keng ma‘noda esa Vatan tuyg‘usini ishonchli, tabiiy, samimiy va ta’sirchan ifoday olgan.

Aslida, mazkur to‘plamning nomi (“Uchayotgan kipriklar”)da ham sog‘inch va qadrdonlarga nisbatab iliq, mehrli munosabat nazarda tutilgan. Unda “Shoir tashqi hodisalar haqida o‘z qalbidagi kechinmalari kabi fikr yuritadi. Bunda ichki kechinma va tashqi olam obrazlarini o‘zaro aralashtiradi. Shuning uchun lirikasida tabiat jonlanadi, jonsiz hodisaga tirikdek munosabat bo‘ladi, unga hissiyot va idrok beradi”[Tomashevskiy B.V. 152]. Bu esa shoir she‘rlariga badiiy ta’sirchanlik, obrazlilik bag‘ishlaydi. Buni ayniqsa, quyidagi uchlikda yanada go‘zal tarsvirgan:

Bolalikni eslar onimda

Bitta yulduz ko‘zini qisdi

Xuddi eski qadrdonimday. [21]

Mazkur she‘rdagi uch misradan iborat. Unda o‘xshatish (*eski qadrdonlarday*), jonlantirish (*ko‘zini qisdi*) va detal-obraz (yulduz), shoir hamda tabiat mutanosibligi, she‘rdagi ramziylik badiiylik va obrazlilikni ta‘minlagan. Bu esa she‘r mazmuniy qatlami teranlashiga xizmat qiladi. Birinchi galda, tabiat tavsiri bor va u lirik kechinmadagi dinamikaga ishora qiladi. Chunki osmon, tun, yulduz detallari assotsiativ tarzda o‘quvchida bepoyon osmon, sokin tun va yolg‘izlik tasavvurini uyg‘otadi. Ikkinchi o‘rinda, yulduz bu yerda lirik subyekt ideali sifatida talqin etilishi mumkin. Chunki u yulduz va albatta yukakda joylanadi. Kishi unga talpinadi. Uchinchi mazmuniy qatlamda esa bolalikning oydin voqeasi sifatida olinishi mumkin. Sababi aksariyat kishilarda eslaganda shirin xotira, har qanday vaziyatda ham qalbiga yorug‘lik olib kiradigan hodisa bo‘ladi. To‘rtinchi o‘rinda, lirik subyekt biroz unutgan yoki nisbatan kam ko‘radigan, ammo uni unutmagan, sadoqatli do‘st samimiy sirdoshi bo‘lishi mumkin. Yulduz yerdan uzoqda joylashgani shunday xulosaga kelishga asos bo‘ladi. Beshinchidan yuqoridagi hamma mazmuniy qatlam, bolalikni eslash shartidan keyin shakllangan. Natijada bolalik lirik subyekt (umuman olganda esa barcha uchun) ga katta imkoniyatlar beradi. Oltinchisi, “bitta yulduz” birikmasida ochiladi, ya’ni boshqa yulduzlar ham, ammo bittasi, menga boshqacha qaraydi, u sodiq do‘st, iliq munosabatlar egasi bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari, she‘rdagi poetik sintaksis subyekt-obyekt-harakat mazmuniga aloqador bo‘lib, subyekt (lirik shaxs) – obyekt (bolalik), ikkisinin qalb harakatini anglatuvchi detal (yulduz) – harakat (ko‘zini qisdi) tarzda bir-birga tobe aloqador kasb etgan. Oddir gap shaklida kelganda u “bolalikni eslaganda bitta yuldiz xuddi eski qadrdonlarday ko‘zi qisdi” tarzda shakllangan bo‘lar edi. Ammo inversiya va jonlantirish uni she‘riy nutqqa aylanishiga salmoqli hissa qo‘shgan. Bu bir tomondan she‘rdagi oniy kechinma tabiatiga samimiylilik, jo‘shqinlik olib kiradi. Ikkinchi tomondan esa shoir olamga teran nigoh, katta umid va o‘ziga ishonch bilan qaraganini tasdiqlaydi. Aslida uchlikning bosh

maqsadi ham hayotsevarlik, insonparvarlik g‘oyalarining nafis ifodalarda yetkazish hisoblanadi.

Muhiddin Abdusamadning boshqa bir she‘ri ham sog‘inch haqida bo‘lib, “Kutish” deb nomlangan:

Yo‘llar uzilmadi qadaming tegib,
Ko‘zim derazaga qorishib ketdi.
Soxta yo‘lovchilar kirib ko‘zimga,
Zulmat cho‘mgan dilim yorishib ketdi.
Sendan visolingni qilmayman talab,
Sendan diydoringni qilmayman tama.
Ammo shuni faqat tushuntirib ket,
Sening qiyofangga kirganmi hamma. [27]

Bu she‘r ekspozitsiyasida shoirning ma‘shuqasi haqida yo‘lagan fikri, ma‘shuqa go‘zalligining qudrati haqida fikr yuritadi. Ammo bu kuch, qudrat lirik subyekt o‘ylagandek, ma‘shuqa qadami tekkan, ma‘shuqa bosib o‘tgan yo‘l aslini yo‘qotmaydi, qanday bo‘lsa, shunday turaveradi. Yo‘lga qarab kutish natijasida ko‘z derazaga aylanishgacha borgan. Shu yerda biroz soxta metafora bordek tuyuladi. Birinchidan, ko‘z va deraza ikklasida ham o‘xshashlik borligini ta’kidlash lozim. Bu ko‘rish, shaffoflik kabi jihatlarida kuzatiladi. Ammo ko‘z nisbatan imkoniyati kengroq detal bo‘lib, deraza bilan qorishib ketish xususiyatiga ega emas. Mubolag‘aviy tarzda berilgan, deb oqlanasa ham jonsiz, buning ustiga sovuq, qattiq jism bilan nisbatan tirik, yumshoq, murakkab tuzilishda ko‘zning aralashishi sof badiiylik, metaforaviy xususiyatga ega emas deyishga asos bo‘ladi. Bu soxta yo‘lovchilar ko‘zga kirib, ya’ni ma‘shuqasining yo‘liga ko‘z tikkan oshiqning ko‘ziga kirib, ma‘shuqa kelishi haqida ilinjga nur berishi ijobiy holat sanaladi. Eng muhimi, oshiqlik alohida maqom bo‘lib, lirik subyekt ma‘shuqasini kutaverib, u haqda fikr yuritaverib qalbiga uning suvratini joylagan. Uning har bir harakati, xarakteri, fikr yuritish tarzi kabilar haqida batafsil ma’lumotga ega. Shuning uchun uning kelishi endi shart emas, chunki ma‘shuqaning asl suvratini lirik subyekt siyratiga joylashgan. Endi ma‘shuqa va lirik subyekt ideali yogona obraz sifatida xayolida, botinida yashaydi. Endi hamma narsa unga o‘sha ma‘shuqaning suvratini bo‘lib tuyuladi. Shu yerda ishq inson mohiyati, borliq asosi haqida katta irfoniylar bilib ham bermoqdaki, birinchi galda, olam ishq, muhabbat bilan mavjud ekanligi ta’kidlanadi. Ikkinchidan, oshiq va ma‘shuqa yuragi bir-birini doimiy his etib turadi. Shuning uchun uzoqda ekanligi sezilmaydi. Uchinchidan esa ishq olam mohiyati, asosi yaxlit bo‘lganligi haqidagi dunyoviy tushunchalarga yangicha ma’no yuklab, she‘rdagi an’anaviy oshiqlik vaziyatiga yangicha mazmun olib kirgan.

Shir hayot haqiqati hamda borliqqa teran hissiyot bilan yodashar ekan, lirik kechinma orqali yuksak obrazli tizim, badiiy subyektiv struktura yaratadi. Unda bir qarasangiz ijtimoiy muammo, ratsional g‘oyalar yoki moddiyot bilan bog‘liq tushunchalar yetakchidek tuyuladi. Ammo lirik kechinmka tabiati va obrazli ifidalarini chuqurroq tahlil qilinsa, shoir

estetikasidagi ijja kechinmalar, nozik qochirim va aforistik angamlar borligini ko‘rasiz. Natijada, uning she‘rlari origallik kasb etadi. Buni quyidagi she‘r tahlilida ko‘ramiz:

Chumolilar nazdida
sen ham daraxtsan
yantoq.
Mening qo‘lim ko‘kka yetmaydi,
biroq
mening qo‘lim yetgan joy
chumolilar nazdida osmondir,
bilsang.
Mening qo‘lim ko‘kka yetmaydi
yantoq. [84]

Bir qarashda she‘rdan lirik kechinmadan ko‘ra falsafiy xulosa, mantiq yoki qiyos birlamchidek tuyuladi. Darhaqiqat, falsafiy mushohada bor va u chumoli va odam, yantoq va daraxt real detallarni solishtirish orqali amalga oshirilgan. Lekin, eng muhimi, bu she‘rda lirik subyektning mushohada tarzi hamda uning ortidan his etiladigan lirik kechinmaga diqqat qilishdir. Lirik subyekt yantoqqa murojaat qilar ekan, har narsa o‘z imkoniyati, mavjud sharoitiga qarab fikr yuritishi, hammada ham katta imkoniyat borligi, mavjud sharoit va ne‘matning qadriga yetish, shukur qilish haqidagi mulohazalarni o‘rtaga tashlaydi. Bu tezis, uni ifodalagan gapdagi kechinma ham hissiy-falsafiy tabiatga ega. Yantoq bu yerda ramziylik kasb etib, nisbatan jamiyatning quyiroq tabaqasiga mansub oddiy kishini bildiradi, ammo u chumoli nazdida ulkan daraxt kabi ekanligini, unga ham tabiat shu holati, zimmasidagi vazifadan kelib chiqib ne‘matlar berganini anglatmoqchi bo‘ladi. Men ham chumolilar nazdida osmonga qadar ulkan va imkoni cheksiz odamman, ammo menda ham armon bor degan fikr berilgan. Ana shu yerda kechinmada nisbatan tushkunroq tabiat anglanadi. Shoir olam, mavjudlik, yaratilqlar o‘rtasidagi tafovut haqida mulohaza yuritar ekan, olamga estetik baho beradi. Olamni hissiy idrok qilishning salmoqli belgisi sifatida oxir band mazmunini olish yetarli. Unda o‘z hayoti, intilishiga baho berar ekan, garchi chumoli nazdida osmondagi odamdek tuyulishini e‘tirof etadi, ammo niyatiga, orzu, idealiga hali yetmaganini afsus bilan tilga oladi. Zotan, hayotning o‘zi ideal sari intilish, yetmagan maqsad sari doimiy intilish, kurashib yashashdan iborat. Shu yerda lirik subyekt borliqni hissiy-falsafiy, badiiy obrazli anglaydigan katta shaxs ekanligi ko‘rinadi. Chunki qator hayotiy dalillar orqali hayot, inson mavjudligi haqida badiiy-estetik xulosa yasalgan.

Xulosa.

1. Muhiddin Abdusamad o‘zi anglashi lozim bo‘lgan real borliq hamda yaratayotgan asari o‘rtasida turgan paytida voqealikning ham bir detaliga o‘zining lirik kechinmasi tabiati va dinamikasidan kelib chiqib yondashadi. Natijada, she‘rlarida teran mazmun, o‘zgaruvchan kechinma, original ifoda yuzaga keladi.

2. Shoir badiiy obraz yaratish jarayonida hissiylik, obrazlilik orqali badiiy falsafiy xulosalarini ham misralarga joylaydi. Bunda metafora, insevrsiya, jonlantirish, o‘xshatish, ruhiy parallelizm kabi tasviy va ifodaviy vositalardan samarali foydalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Гегель. Эстетика. В 4-х томах. Том третий. – М.: Исскуство, 1971. – 624 с.
2. Карим, Баҳодир. Рухият алифбоси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйиб 2016ю – 364 б.
3. Муҳиддин Абдусамад. Учаётган киприклар. – Тошкент: Sahhof, 2022. – 112 б.
4. Сильман, Тамара. Заметки о лирике. – Л.: Сцвеестский писатель, 1977. – 224 с.
5. Ғафуров И. Асарлар / Адабиёт дунёсиЖ саккиз жилдлик. Биринчи жилд. ЖозибаЖ адабий танқидий рисоалар. – Тошкент: Тошкент: Янги аср авлоди, 2022. – 496 б.
6. Томашевский Б.В. Теория литературы. Поэтика: Учеб. пособие/Вступ. статья Н.Д. Тamarченко; Комм. С.Н.Бройтмана при участии Н.Д. Тamarченко. – М.: Аспект Пресс, 1999.– 334 с.